



TRANSLATION FEATURES AND EQUIVALENTS OF SOMATIC COMPONENT PROVERBS FROM THE DARI LANGUAGE INTO UZBEK

Nargizakhon Mirakhatova

Master's Degree Student (1st Year)

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Email: nargiza.maxkamboyeva@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

D. Ahmedova

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: somatism, paremia(proverb), alternative, hand and foot somatic component.

Abstract: This article presents several proverbs in the Dari language that contain somatic components and form a significant part of the proverb system. They are compared with their equivalents in the Uzbek language and issues of translation and possible alternative variants are analyzed.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

DARIY TILIDAGI SOMATIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING O'ZBEK TILIDAGI TARJIMA XUSUSIYATLARI VA MUQOBILLARI

Nargizaxon Miraxatova

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

nargiza.maxkamboyeva@mail.ru

Toshkent, O‘zbekiston

D. Ahmedova

Filologiya fanlari doktori

TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: somatizm, paremiya, muqobil, ekvivalent, dast{qoʻl} somatizmi, pâ{o yoq} somatizmi.

Annotatsiya: ushbu maqolada dariy tilidagi maqollarning salmoqli tizimini tashkil etuvchi somatik komponentli maqollardan baʼzilari keltirilib, ularning oʻzbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyoslab, tarjimada berilish masalalari va muqobil variantlari tahlil qilingan.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА И ЭКВИВАЛЕНТЫ ПОСЛОВИЦ С СОМАТИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ С ДАРИ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Наргизахон Мирахатова

Студентка магистратуры 1 курса

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Email: nargiza.maxkamboyeva@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

Д. Ахмедова

Доцент, доктор филологических наук,

Высшая школа иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: соматизм, паремия (пословица), альтернатива, эквивалент, соматические компоненты «рука» и «нога».

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые пословицы дари, содержащие соматические компоненты, которые составляют значительную часть паремиологической системы. Они сопоставляются с их эквивалентами в узбекском языке, а также анализируются вопросы перевода и возможные альтернативные варианты.

Kirish. “Maqol va matallar xalq aql-idroking mahsuli, uning hukmi, koʻp asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa- voqealarga munosabati demakdir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlariga munosabatida yaratiladi. U xalq maqoli- xalq mulkidir. Maqol qaygʻusi- xalq qaygʻusi. Maqol gʻazabi- xalq gʻazabi, maqol kulgusi- xalq kulgusi va maqol kinoyasi- xalq kinoyasi demakdir. Maqol yaratmagan bironta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yoʻq.”

Oʻzbek va afgʻon xalqi qadim asrlarga ega boʻlgan tarix, madaniyat va tilga ega. Bu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ikki tilning ham juda boy til ekanligini bildiradi. Bu tillardagi xalq ogʻzaki ijodi, yozma manbalar boshqa tillarga nisbatan ancha boy. Ayniqsa, dariy tili qadimdan to hozirga qadar rivoj topib, shakllanayotgan til boʻlib, ogʻzaki va yozma adabiyoti juda boy hisoblanadi. Shu jumladan, xalq ogʻzaki ijodiga mansub boʻlgan maqol, matal va naqlar xalqning qadimdan to hozirgi kunga qadar boʻlgan boshdan kechirganlarini, hayotiy tajribasini, qadriyatini

madaniyatini o‘zida aks ettirgan bo‘ladi. Tillardagi maqollarning salmoqli qismini somatik komponentli maqollar tashkil qiladi.

Somatizmlar – bu inson yoki hayvon tanasi qismlarining nominatsiyasi uchun qo‘llaniladigan otlar hisoblanadi. Somatik leksika deganda, tarkibiy qismi inson tanasining qismlari, hayvonlar tanasining qismlari so‘zlaridan tashkil topgan birliklarga aytiladi. Bu atama biologiyada, tibbiyotda “inson tanasi bilan bog‘liq narsa” ma’nosida ishlatilishi mumkin va “aqliy” tushunchasiga ziddir. Quyida dariy tilidagi دست dast va پا pâ somatizmlari ishtirok etgan maqollar tahlili keltiriladi:

دست dast so‘zining yetakchi, bosh ma’nosi qo‘l bo‘lib, tananing yelkadan to barmoq uchlarigacha bo‘lgan qismini bildiradi. Tildagi eng sermahsul va keng qo‘llaniluvchi somatizm hisoblanib, dariy tilida ushbu somatizm tarkibida mavjud bo‘lgan ko‘plab maqollarni uchratish mumkin. Quyida ulardan bir qanchasining tahlilini ko‘rishingiz mumkin bo‘ladi:

حیای خود را در دست خود نگاهدار

Mazkur maqolning tarjimasini “hayoyingni saqlash o‘z qo‘lingdadir” bo‘lib, o‘zida chuqur ma’noni kasb etadi ya’ni kishi o‘z hayosini, obro‘cini, hurmatini jamiyat ichida saqlab qolishi uning o‘ziga bog‘liq ekanligi, agarda birovlariga hurmat ehtirom ko‘rsatsa vaqti kelib ana shu munosabat o‘ziga qaytib kelishi haqda bayon etilgan. O‘zbek tilida bu maqolga muqobil sifatida “hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan” maqolini berish mumkin bo‘ladi. Bu o‘rinda dariy tilidagi maqolda “qo‘l” somatizmi qatnashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida hech qanday somatizm ishtirok etmagan.

هر کس که حیانت ورزد دستش از حساب بلرزد

Ushbu maqolning so‘zma-so‘z tarjimasini “kimki xiyonat qilsa, uning qo‘llari hisobda qaltirar” bo‘lib, xalq turmush tarzidagi dolzarb masala to‘g‘risida gap boradi, ya’ni birovning haqqiga, moliga, vaqtiga va shunga o‘xshash narsalarga xiyonat qilish va vaqti kelib uning jabrini tortishi va bir kun kelib albatta bu qabihlik oshkor bo‘lib qolishi to‘g‘risida aytilmoqda. Bu maqolga muqobil sifatida ma’no jihatidan “kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qilar” maqolini olish mumkin. Shunda o‘zbek tilidagi maqolda hech bir somatik component ishtirok etmaydi.

از هر دست دادی پس میگیری

Mazkur maqolning so‘zma-so‘z tarjimasini “qaysi qo‘l bilan bersang, qaytarib olasan” bo‘lib, inson yaxshilik qilsa bir kun albatta qaytishi, beradigan, ochiq qo‘lga albatta berganidan bir necha barobar ko‘proq kelishi haqda aytilgan. O‘zbek tilida bunga qisman muqobil sifatida “daryoga yaxshilik qilsang, ajrini biyobondan topasan” maqolini berish mumkin.

اگر گل در دست داری میوی: بشتاب

Ushbu maqolning so‘zma so‘z tarjimasini “gar qo‘lingda gul bo‘lsa, uni hidlama” bo‘lib, kishining o‘zida mavjud bo‘lgan narsaga ishonib qolmasligi, shoshqaloqlik qilmasligi to‘g‘risida aytilmoqda, ya’ni qo‘lingda gul bo‘lsa ham uni hidlashga shoshilma ma’nosidagi maqol. Bu maqolga

ma'noviy jihatdan o'zbek tilidagi "shoshganning ishi o'ngmas", "shoshqaloq to'g'ramchi qo'lni kesar" maqollarini muqobil sifatida kontekstga qarab tanlash mumkin.

دست از من ، برکت از خدا

Mazkur maqolning so'zma-so'z tarjimasi "mendani (qo'l) amal, xudodan barakat" bo'lib, inson o'z maqsadlari sari intilishi, harakatiga qarab xudodan barakat kelishi, shunga yarasha natija berishi borasida so'z bormoqda. O'zbek tilida ham bu maqolning aynan muqobili mavjud bo'lib "sendan harakat, mendan barakat" tarzida Xudoning bandasiga qilgan xitobi sifatida foydalaniladi. "qo'l" somatizmi qatnashmagan.

دست چپ از راست نشناختن شناختن

Mazkur maqolning so'zma-so'z tarjimasi quyidagicha "chap qo'l o'ngini tanimas" bo'lib, uning ma'nosini ikki xil tushunish mumkin: ijobiy va salbiy. Ijobiy tarafdin tushuniladigan bo'lsa, bir qo'l qilgan yaxshi amallari, xayr-ehsonini ikkinchi qo'l bilmay qolishi, ya'ni ezgu amallarni kishilarning nazari, gap-so'zlari uchun emas, balki uni xufiyona tarzda faqatgina Yaratgan uchun bajo keltirish. Ikkinchi tomondan oladigan bo'lsak, bir qo'l qilgan baxdulkliklariyu, illatli ishlarini ikkinchi qo'l ham sezmay qoladigan darajada barchadan yashirib qilib, odamlarga o'zini aybsiz ko'rsatishni tushunish mumkin. Bunda qaysi ma'no berilayotganini kontekst orqali aniqlab olish mumkin bo'ladi. O'zbek tilida bu maqolga muqobil sifatida "o'ng qo'l berganini chap qo'ling bilmasin" degan naqlni tanlash mumkin. Ular orasidagi farq shundaki, dariy tilida chap qo'l markazga olingan bo'lsa, o'zbek tilida o'ng qo'l markazda turibdi. Bundan tashqari, dariy tilidagi bu maqolni ham salbiy ham ijobiy o'rinlarda istifoda qilish mumkin bo'lsa, o'zbek tilidagi naqlni faqatgina ijobiy ma'noda qo'llash mumkin.

دست کار میکند، چشم میدسد.

Ushbu maqolning tarjimasi "qo'l ish qiladi, ko'z qo'rqadi" bo'lib, o'zbek tilidagi "ko'z qo'rqoq, qo'l botir" maqoli to'liq ekvivalenti hisoblanadi. Maqolda ikki somatik component qatnashgan: "qo'l" va "ko'z".

کار دست را دل میکند

Ushbu maqolning so'zma-so'z tarjimasi "qo'l ishini yurak bajarar" bo'lib, pichoq ettan o'tib, suyakka taqalganini bildirib, kishining sabr-kosasi tugagan paytda mana shu maqol qo'llaniladi. Bunda maqolda ikki somatik komponent: "qo'l" va "yurak" qatnashgan.

pa pa so'zining yetakchi, bosh lug'aviy ma'nosi "oyoq" bo'lib, tananing beldan pastki to'liq qismini tashkil etadi. Ushbu somatizm qatnashgan maqollar ham mavjud:

بایست تا علف زیر پایت سبز شود

Mazkur maqolning so'zma-so'z tarjimasi "Oyog'ing ostidagi o't ko'karguncha turgin" bo'lib, bu yerda kishining nihoyatda sabr-toqatli bo'lishi kerakligi, shundan so'ng biron-bir natijaga ega bo'lish mumkinligi aytilmoqda. Bir niholning unib chiqquniga qadar qancha vaqt ketsa, insonga

shunchalik ko‘p sabr qilishi kerakligi uqtirilmoqda. Bu maqolga o‘zbek tilidagi “sabr- sabrning tagi sariq oltin” maqoli qisman ekvivalent bo‘la oladi.

پارا باندازه گلیم دراز کن

Ushbu maqolning so‘zma-so‘z tarjimasi “oyog‘ingni gilamga qarab uzat” bo‘lib, kishining o‘z sharoiti, vaziyatiga qarab ish – chora ko‘rishi lozimligi ta’kidlanmoqda. Sababi ba’zi bir kishilar o‘zlarining sharoitlaridan kelib chiqmasdan turib, baland dorga osiladilar va oqibati o‘zlariga mushkulotga yo‘liqib qoladilar, maqolda shu vaziyatga nisbat berib aytilgan. Bu maqolga o‘zbek tilida ham aynan “ko‘rpangga qarab oyog‘ingni uzat” mavjud bo‘lib, dariy tilida maqol hisoblansa, o‘zbek tilida bu birlik frazeologizmlar tarkibiga kiritilgan.

بهشت در پای مادران باشد

Bu maqolning tarjimasi va to‘la muqobili “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” bo‘lib, har ikki tilda ham ayni somatizm ishlatilgan, maqolda xalqlarning qadriyatlarini, tushunchalari ifodalangan.

با دست پس میزند با پا پیش می کشد

Mazkur maqolning so‘zma-so‘z tarjimasi “qo‘li bilan ortga tortadi, oyog‘i bilan oldinga intiladi” bo‘lib, ikki somatik komponent qatnashgan: “qo‘l”, “oyoq”. Ma’nosi qanchalik kishi harakat qilmasin, yugurib, yelmasin faqat bir o‘zi harakat qilgani kamlik qilishi va natijaga erishish juda ham mushkul bo‘lishini bildiradi. O‘zbek tilida bunga ekvivalent sifatida “yolg‘iz otning changgi chiqmas, changgi chiqsa ham dong‘i chiqmas” maqolini berish mumkin.

Dariy tilidagi maqol va matallar haqida shuni aytishimiz mumkinki, bu birliklar uzoq vaqt davomida dariy adabiyotiga nasr va she’riyat orqali kirib kelgan. O‘z asarida maqol va matallardan iqtibos keltirmagan birorta ham mashhur dariyzabon shoiri yo‘q edi. Klassik davr dariyzabon xalq adabiyotida ular juda ko‘p va asosan she’riy shaklda uchraydi. Maqollar va matallarning farqi haqidagi masala xalq og‘zaki ijodining boshqa janr shakllari orasidagi o‘rnini aniqlashda muhim nazariy ahamiyatga ega. Ularni frazeologizmga kiritish yoki kiritmaslik hanuz ham munozarali masalaligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘., Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir, O‘zbekistan Fanlar akademiyasi nashriyoti. – T.:1961, 7-bet
2. Ibragimovna, G. M. ., & Nargiza, Q. . (2023). Matal va maqollarda somatik birliklar ifodasi. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 25–28.
3. Муратова, Е. Ю. “Роль соматической лексики в русских пословицах и поговорках”; 2022 | Journal article URI:
4. “Mavlyuda Ibragimovna Gadoyeva somatik leksikaning xususiyatlari // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/somatik-leksikaning-xususiyatlari> (дата обращения: 10.05.2023).
5. یوسف جمشیدی پور. فرهنگ امثال فارسی. تهران ۱۹۶۷.